



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI PREZIDENTINING BUYRUG‘I

2026-yil 3-avgust

19-105-son

Toshkent sh.

Fanlar akademiyasining jamg‘armasi faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash qarorlari ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-maydagi 260-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining jamg‘armasi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq Fanlar akademiyasi jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengashning (keyingi o‘rinlarda – Kengash) 2026-yil 14-iyuldagi 1-son bayonnomasi ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Kengashning **2026-yil 14-iyuldagi 1-son bayonnomasi** ijro uchun qabul qilinsin.
2. Jamg‘arma Ishchi organi - Jamg‘arma faoliyatini tashkil etish bo‘limi (S.Taxirov), Axborot xizmati rahbari (S.O‘rinbayeva) hamda Kengash mas‘ul kotibi (M.Nazirov) mazkur **buyruq imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida:**
 - Kengashning 2026-yil 14-iyuldagi 1-son bayonnomasini;
 - Jamg‘armaning daromadlar va xarajatlar smetasini;
 - reagent, reaktiv, xomashyo, sarflov materiallari va butlovchi qismlar bo‘yicha arizalarni qabul qilish muddatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni **Fanlar akademiyasining rasmiy veb-saytiga** joylashtirilishini ta‘minlasin.
3. Moliya-iqtisod bo‘limi (A.Mahammatov) hamda Ishchi organ (S.Taxirov) bilan birgalikda 2026-yil uchun tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar parametrlari (moliyaviy rejasi) doirasida Kengash qarorlariga muvofiq **xarajatlar smetasiga** tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar loyihalarini tayyorlasin.
4. Ishchi organ (S.Taxirov) Jamg‘arma mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida 2026-yil uchun tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar parametrlari (moliyaviy rejasi)ga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bo‘yicha zaruratga ko‘ra Kengashda ko‘rib chiqish uchun **asoslantirilgan takliflarni** kiritib borsin.
5. Fizika-matematika va texnika fanlari bo‘limi (S.Baxramov), Kimyo-biologiya fanlari bo‘limi (J.Tashpulatov) hamda Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi (N.Mustafayeva):
 - 2026-yil 6-avgustdan 14-avgustga qadar** “Reagent, reaktiv, xomashyo, sarflov materiallari va butlovchi qismlarni xarid qilishga mablag‘ ajratish tartibi”ga muvofiq taqdim etilgan **arizalarni** tegishli tashkilotlardan **qabul qilsin;**
 - taqdim etilgan hujjatlarning **belgilangan shakl va talablarga muvofiqligi hamda to‘liqligini** tekshirishni ta‘minlasin;

qabul qilingan arizalarni **2026-yil 20-avgustga qadar** tegishli **ilmiy-texnik kengashlarda** ko'rib chiqib, natijalari bo'yicha tayyorlangan **xulosalarni** belgilangan tartibda Kengashga kiritish uchun **Ishchi organga** taqdim etsin.

6. Ishchi organ (S.Taxirov) xulosalar va unga ilova hujjatlarni ularning kelib tushgan kundan boshlab **besh ish kuni ichida belgilangan tartibda** Kengashga kiritsin.

7. Fanlar akademiyasi prezidenti o'rinbosari (A.Abdukarimov), Buxgalteriya (M.Yakubova), Raqamlashtirish va axborot xavfsizligi bo'limi (N.Tilovov), Samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash va reyting bo'limi (F.Karimova), Strategik rejalashtirish va xalqaro grantlarni jalb qilish bo'limi boshlig'i (A.Bahodirov) ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan xaridlarning O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlasin.

8. Raqamlashtirish va axborot xavfsizligi bo'limi (N.Tilovov), Samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash va reyting bo'limi (F.Karimova), Strategik rejalashtirish va xalqaro grantlarni jalb qilish bo'limi (A.Bahodirov) xaridlar natijalari bo'yicha tuzilgan shartnomalar ro'yxatlarini shartnomalar tuzilgan sanadan e'tiboran **besh ish kuni ichida** belgilangan tartibda **Ishchi organga** taqdim etsin.

9. Ishchi organ (S.Taxirov), Axborot xizmati rahbari (S.Urinbayeva) tuzilgan shartnomalar ro'yxatlarini **Fanlar akademiyasining rasmiy veb-saytida** shartnomalar ro'yxatlari Ishchi organga taqdim etilgan kundan e'tiboran **besh ish kuni ichida** e'lon qilinishini ta'minlasin.

10. Oliy attestatsiya komissiyasi (A.Shermuhamedov), Moliya-iqtisod bo'limi (A.Mahammatov), Ishchi organ (S.Taxirov) va Buxgalteriya (M.Yakubova):

belgilangan tartibda mablag'larni o'tkazish va Oliy attestatsiya komissiyasiga shaxsiy g'azna hisobvarag'i ochish uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirsin;

Kengash qaroriga muvofiq **5 milliard so'm doirasida** zarur mablag'larni yo'naltirish maqsadida belgilangan tartibda **hisob-kitoblar buyurtmanomasini** Fanlar akademiyasiga taqdim etsin;

mutaxassislar mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq ishlar **2026-yil uchun to'liq amalga oshirilganidan so'ng**, foydalanilmagan yoki iqtisod qilingan mablag'lar belgilangan tartibda **joriy yilning 31-dekabr sanasiga qadar** Jamg'armaning shaxsiy g'azna hisobvarag'iga **qaytarilishini** hamda **hisobot taqdim etilishini** ta'minlasin.

11. Kengash mas'ul kotibi (M.Nazirov) mazkur buyruq bilan belgilangan topshiriqlarning bajarilishi yuzasidan monitoring olib borsin hamda har chorak yakuni bo'yicha Kengashga axborot kiritsin.

12. Mazkur buyruq bilan belgilangan topshiriqlar bajarilishini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

O'zR FA prezidenti



Sh.A. Ayupov